LG Life's Good

FOYDALANUVCHI YO'RIQNOMASI

# LG Digital Signage

(SIGNAGE MONITORI)

Xavfsiz va qulay foydalanish uchun ushbu mahsulotni ishlatishdan oldin foydalanuvchi qo'llanmasi bilan tanishib chiqing.

Android 9.0

www.lg.com

# MUNDARIJA


**EHTIYOTKORLIK CHORALARI ... 4**

- O'zgaruvchan tok adapteri va quvvat bo'yicha ehtiyot choralari ... 5
- Mahsulotni siljitish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari ... 7
- Mahsulotni o'rnatish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari ... 8
- Mahsulotni tozalashga oid ehtiyotkorlik choralari ... 10
- Mahsulotdan foydalanish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari ... 11
- Masofadan boshqarish pultidan foydalanishdagi ehtiyot choralari ... 13
- Qoldiq tasvir yuzaga kelgan vaqtdagi ehtiyotkorlik choralari ... 14
- Mahsulotni chiqitga chiqarish ... 14

**MASOFAVIY PULTNI ISHLATISH ... 15**

**ULANISHLARNI BAJARISH ... 18**

- ShKga ulash ... 18
- Tashqi qurilma ulanishi ... 18

**KIRISH (IFP OT) ... 20**

- Ta'lim uchun IFP operatsion tizimi yechimi: ... 20

**[Launcher] ... 21**

- [Status Bar] ... 24
- [Shortcut Area] ... 29
- [Shortcut Management] ... 40
- [Wallpaper] ... 42

**[System Bar] ... 44**

- [Navigation Bar] ... 48
- [Application Center] ... 49
- [Small Tools] ... 53
- [System Bar Settings] ... 59

**[Multi-Windows] ... 61**

**[All Apps] ... 69**

- [Note] ... 69
- [Palette] ... 80
- [Finder] ... 88
- [Settings] ... 96
- [Cloud Drive] ... 110
- [OfficeSuite] ... 111
- [Photo] ... 112
- [Music] ... 113
- [Video] ... 113
- [Keeper] ... 114
- [Email] ... 116
- [LG ConnectedCare DMS] ... 117
- [LG CreateBoard Share] ... 119

## KICHIK VOSITALAR............. 120

- [Menu]............................................... 120
- [Annotation]........................................ 121
- [CountDown] ....................................... 122
- [Capture] ........................................... 123
- [Stopwatch] ........................................ 124
- [AirClass]............................................ 125
- [Spotlight] .......................................... 134
- [Freeze]............................................... 134
- [ScreenLock]....................................... 135
- [Record] ............................................. 136

## MULTIMEDIA XUSUSIYATLARI .................. 137

- Kino...................................................... 137
- Surat .................................................... 140

## BIR NECHTA MAHSULOTNI BOSHQARISH ....................... 141

- Ma'lumot uchun Buyruqlar ro'yxati....... 141
- Uzatish/Qabul qilish protokoli............... 142

## NOSOZLIKLARNI BARTARAF QILISH.................................. 146

Manba kodini GPL, LGPL, MPL va boshqa ochiq manbali litsenziyalar ostida olish uchun bu mahsulotda mavjud bo'lgan manba kodini oshkor qilish majburiyatiga ega bo'lgan, shuningdek eslatib o'tilgan litsenziya shartlariga, mualliflik huquqi to'g'risidagi xabarnomalarga va boshqa tegishli hujjatlarga kirish uchun *https://opensource.lge.com* saytiga tashrif buyuring.

LG Electronics *opensource@lge.com* manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif bu mahsulotni oxirgi marta jo'natganimizdan keyin uch yil davomida bu ma'lumotni olgan har bir kishi uchun yaroqli hisoblanadi.

# EHTIYOTKORLIK CHORALARI

Ehtiyotkorlik choralari foydalanuvchiga mahsulotdan xavfsiz tarzda va undan ko‘zlangan maqsadlarda foydalanishga yordam berish orqali kutilmagan xatarlar yoki zararlarning oldini olishga mo‘ljallangan.

## ⚠ OGOHLANTIRISH

Agar siz ogohlantiruvchi xabarga e‘tibor qaratmasangiz, jiddiy jarohatlanishingiz yoki bu halokatlar yoki o‘limga olib kelishi mumkin.

## ⚠ DIQQAT

Agar siz diqqat xabariga e‘tibor qaratmasangiz, yengil jarohatlanishingiz yoki mahsulot shikastlanishi mumkin.

### Model gap rangiga mos keladi

| | | |
|---|---|---|
| UMUMIY | TO‘SIQ | LED |

# O'zgaruvchan tok adapteri va quvvat bo‘yicha ehtiyot choralari

## ⚠ OGOHLANTIRISH

- Faqatgina LG Electronics, Inc. tomonidan taqdim etilgan yoki maqullangan quvvat kabeli yoki AC adapteridan foydalaning. Agar boshqa quvvat kabelidan foydalansangiz, u mahalliy standartlarga javob berishini tekshiring. Agar elektr tarmog‘iga ulash kabeli qandaydir tarzda shikastlangan bo‘lsa, uni almashtirish uchun ishlab chiqaruvchi yoki eng yaqin vakolatli ta‘mirlash markaziga murojaat qiling.
- Faqatgina mahsulot xususiyatlarida ko‘rsatilgan quvvat manbai (ya’ni kuchlanish) orqali displeydan foydalaning.
  - Aks holda mahsulot shikastlanishi, yong‘in kelib chiqishi yoki sizni elektr toki urishi mumkin. Sizdagi quvvat manbai qanday ekanini bilmasangiz, sertifikatsiyadan o‘tgan montaj kompaniyasi bilan maslahatlashing.
- Quvvat kabeli yerga yaxshilab ulangan rozetkaga ulanganiga ishonch hosil qiling.
  - Agar shunday qilmasangiz, sizni elektr toki urishi yoki jarohatlanishingiz yoki mahsulot shikastlanishi mumkin.
- Elektr vilkasi yoki AC adapterini o‘rnida qimirlamaydigan qilib kiriting.
  - Yomon ulanish yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Momaqaldiroq yoki chaqmoq vaqtida elektr tarmog‘iga ulash va signal kabellariga tegmang, chunki ular xavfli bo‘lishi mumkin.
  - Bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Quvvat manbaiga ulash shnuri yoki AC adapterini bosmang, yoki uning ustiga og'ir narsalarni (elektron jihozlar, kiyim va hokazo) qo'ymaslikka ehtiyot bo'ling. Undan tashqari, quvvat kabeli yoki AC adapterini ortiqcha buklamang yoki tortmang.
  - Shikastlangan quvvat manbaiga ulash shnurlari yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- O‘tkir predmetlar bilan zararlangan quvvat kabeli yoki AC adapterini rozetkaga ulamang.
  - Sizni elektr toki urishi mumkin.
- Bir uchi devordagi rozetkaga ulangan elektr tarmog‘iga ulash kabelining boshqa uchiga elektr o‘tkazuvchi narsalarni (metall tayoqchalar singari) kiritmang. Undan tashqari, quvvat kabelini chiqarishingiz zahoti ushlamang.
  - Sizni elektr toki urishi mumkin.
- Bir necha elektrik qurilma va isitish jihozlari ulangan multi-rozetkadan foydalanmang. Yerga ulangan maxsus multi-rozetkadan foydalaning.
  - Ortiqcha qizib ketish tufayli yong‘in chiqishiga olib kelishi mumkin.

- Agar mahsulot ichiga suv yoki boshqa moddalar kirib qolsa, darhol quvvat manbaiga ulash shnurini uzing va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Aks holda bu mahsulotga shikast yetkazilganligi sababli yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Quvvat shnuri yoki AC adapterini isitish qurilmalaridan uzoqroq saqlang.
  - Shnur qoplamasi erib ketishi va bu yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Hech qachon quvvat manbaiga ulash shnuri yoki o'zgaruvchan tok adapterini ochmang, ta'mirlamang yoki o'zgartirmang.
  - Bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Asosiy quvvatdan uzish qurilmasi — quvvat kabeli. Mahsulot oson yetish mumkin bo‘lgan yaqin devordagi rozetkaga ulanganiga ishonch hosil qiling.
- Qurilma devordagi o‘zgaruvchan tok rozetkasiga ulangan bo‘lsa, qurilma o‘chirilganda ham elektr quvvatidan uzilmaydi.
- Quvvat iste'moli faqatgina elektr ta'minot kabeli rozetkadan uzilgandagina "0" bo'lishi mumkin.
- Qurilma shtepseildan tokdan uzish qurilmasi sifatida foydalaning.

## ⚠ DIQQAT

- Agar rozetka, elektr vilkasi kontaktlari yoki AC adapteri chang bilan qoplangan bo‘lsa, ularni tozalang.
  - Chang qatlamlari sababli qizib ketish yong‘in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Agar rozetka, elektr vilkasi kontaktlari yoki AC adapteri suv bilan qoplangan bo‘lsa, ularni arting. Undan tashqari, elektr manbaiga ulash vilkasi yoki o'zgaruvchan tok adapteriga nam qo'llaringiz bilan tegmang.
  - Bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Elektr manbaiga ulash shnurini rozetkaga ulash yoki rozetkadan uzish orqali mahsulotni yoqmang/o'chirmang. Bu vilkadan vklyuchatel sifatida foydalanmaslik lozim deganidir.
  - Bu elektr toki urishiga yoki mahsulotning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulotdan foydalanilayotgan vaqtda elektr tarmog‘idan uzmang.
  - Elektr tokining urishi mahsulotni shikastlashi mumkin.

# Mahsulotni siljitish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari

## OGOHLANTIRISH

- Jihozni siljitishdan oldin xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Bu elektr toki urishiga va mahsulot zararlanishiga olib kelishi mumkin.
- Jihozni surishdan oldin uning o‘chirilganligi, rozetkadan uzilganligi va barcha kabellar ajratilganligiga ishonch hosil qiling.
  - Sizni elektr toki urishi yoki mahsulot shikastlanishi mumkin.
- Mahsulotni surayotganda, uni silkitmang va uning old paneliga tegmang.
  - Sizni elektr toki urishi yoki mahsulot shikastlanishi mumkin.
- Mahsulot vazniga ko‘ra insonlar soni bo‘yicha talabga amal qiling. (Kishi boshiga 25 kg dan kamroq, 100 kg dan yuqori bo‘lsa, ko‘taruvchi uskunadan foydalaning)
  - Agar zararlangan mahsulotdan yana foydalansangiz, xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling chunki bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Faqat mahsulotni oyog‘idan ushlaganda uni yuqoridan pastga qarab tutmang. (Bu faqat oyoqqa ega modellar uchun mo‘ljallangan.)
  - Bu tayanchning qiyshayishi, panelning shikastlanishi va mahsulotning boshqa tarzda shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

## DIQQAT

- Mahsulotning qadoqlash qutisini tashlab yubormang. U mahsulotni tashish vaqtida uni qutisiga solish uchun ishlatilishi mumkin.

# Mahsulotni oʻrnatish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari

## OGOHLANTIRISH

- Jihozni montaj qilishdan oldin xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Bu elektr toki urishiga va mahsulot zararlanishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulot ustiga buyumlarni tashlamang yoki uni hech qanday ta'sir ostiga qoʻymang. Bolalardan uzoqda saqlang va mahsulot ekraniga otilishini oldini olish uchun uning yoniga oʻyinchoq yoki boshqa predmetlarni qoʻymang.
  - Bu odamlarning jarohatlanishi, mahsulot bilan bogʻliq muammolar va displeyning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulotning ustiga ogʻir buyumlar qoʻymang yoki unga osilmang.
  - Mahsulot sinib ketsa yoki tushirib yuborilsa, shikastlanishingiz mumkin.
- Oʻta qizib ketmasligi uchun mahsulot yuzasiga tegmang.
  - Bu insonga jarohat yetkazishi mumkin.
- Shamol va zilzila kabi tabiiy ofatlarga qarshi oldindan tayyorlanish uchun mahsulotni polga, devorga yoki boshqa biror joyga mahkam oʻrnating.
  - Taqdim etilgan qoʻllanmaga rioya qilish zarur.
- Bolalarni jihoz ustiga chiqishi yoki osilishining oldini oling.
  - Mahsulot sinib ketsa yoki tushirib yuborilsa, shikastlanishingiz mumkin.
- Uni elektrik isitgichlar yoki yoritish jihozlari kabi issiqlik chiqaruvchi qurilmalar boʻlgan joylarga oʻrnatmang.
  - Yongʻin chiqishi, yoki elektr toki urishi yoki notoʻgʻri ishlash yuz berishi mumkin.
- Bu mahsulotni oʻzingizcha oʻrnatmang, chunki oʻzingizga shikast yoki mahsulotga zarar yetkazishingiz mumkin. Xizmat koʻrsatish markazi tomonidan ruxsat berilgan xizmat koʻrsatuvchi muhandisga murojaat qiling.
- Mahsulotni yogʻ manbalari yoki yogʻ tutunlariga yaqin boʻlgan devorga mahsulotni oʻrnatmang.
  - Bu mahsulotning shikastlanishiga va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Elektr tarmogʻiga ulash kabeli yoki signal kabeli va hokazolarni odamlar oʻtadigan yoʻlakchada tashlab qoʻymang.
  - Bu qoqilish yoki yiqlishga hamda natijada elektr toki urishi, yongʻin chiqishi, mahsulotning buzilishiga yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.
- Tashqi qurilmaga kalta kabel yordamida ulash orqali mahsulotning tushib ketishiga yoʻl qoʻymang.
  - Bu jarohatlanish va mahsulotning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Agar mahsulotni tushirib yuborsangiz yoki korpusi singan boʻlsa, mahsulotni oʻchiring va elektr tarmogʻiga ulash kabelini uzing hamda xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Agar kerakli choralarni koʻrmasdan turib foydalanishni davom ettirsangiz, elektr toki urishi yoki yongʻin chiqishi sodir boʻlishi mumkin.
- Mahsulotni quruq joyga, chang va suvdan uzoqroq joyga oʻrnating. Yuqori haroratlar va namlik ta'sir etishiga yoʻl qoʻymang.
  - Bu elektr toki urishi, yongʻin chiqishi yoki mahsulotning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulotni uning vaznini koʻtara oladigan joyga xavfsiz tarzda oʻrnating.
  - Agar mahsulot qoʻyilgan joy uni koʻtara olmasa, mahsulot tushib ketishi mumkin.
- Mahsulotni ishlatganda qulay va tabiiy shaklda joylashing va mushaklarni boʻsh qoʻying.
- Bu mahsulotni qimirlaydigan, qiya, beqaror, tebranuvchan boʻlgan joylarga yoki mahsulotning oʻz oʻrnida qolishini ishonchli va xavfsiz qoʻllab-quvvatlamaydigan joylarga oʻrnatmang. Mahsulot va mahsulotni qoʻllab-quvvatlaydigan mebellar orasiga mato yoki boshqa narsalarni joylashtirmang.
  - Mahsulot qulab tushishi yoki toʻnkarilishi narijasida shikastlanishi yoki ishlamay qolishi mumkin.

## ⚠ DIQQAT

- Mahsulotni elektromagnit to‘siqlar bo‘lmaydigan joylarga o‘rnating.
- Agar siz mahsulotni tavsiya qilingan shartlarga javob bermaydigan joylarga o‘rnatsangiz, bu mahsulot ko‘rsatadigan tasvir sifati, mahsulotning ishlash muddati va ko‘rinishiga jiddiy shikast yetkazishi mumkin. Iltimos, o‘rnatishdan avval xizmat ko‘rsatish muhandisi bilan maslahatlashing. Mahsulotni chang yoki yog‘ tutuni ko‘p bo‘lgan, kimyoviy moddalar ishlatiladigan, bevosita quyosh nurlari tushadigan, harorat juda yuqori yoki past bo‘ladigan yoki namlik yuqori bo‘lgan joyga o‘rnatmang.
- Mahsulot devordan ventilyatsiya yaxshi bo‘ladigan masofada (100 mm yoki ko‘proq) o‘rnatilishini ta’minlang.
  - Agar mahsulotni devorga juda yaqin o‘rnatsangiz, ichki issiqlik yig‘ilishi tufayli u deformatsiyalanishi yoki yong‘in chiqishi mumkin.
- Mahsulotni tokka ulaganda uning ventilyatsiya tuynugini to‘sib qo‘ymaslik uchun dasturxon yoki parda yoki boshqa material (masalan plastik) bilan yopmang.
  - Mahsulot ichining ortiqcha qizib ketishi tufayli u deformatsiyalanishi yoki yong‘in chiqishi mumkin.
- Mahsulotni havo aylanishi yaxshi bo‘lmagan joylarga (masalan, kitob tokchasi, shkaf) yoki tashqariga o‘rnatmang va yostiqlar yoki gilamlar ustiga joylashtirmang.
  - Mahsulot ichidan qizib ketishi oqibatida yonib ketishi mumkin.
- Mahsulotni tutib turish uchun yetarlicha kenglikdagi tekis va qattiq joyga o‘rnating.
  - Agar mahsulot tushib ketsa, jarohatlanishingiz yoki mahsulot ishdan chiqishi mumkin.
- Mahsulot shkaf yoki javonga o‘rnatilayotganda, mahsulotning pastki qismi bo‘rtib chiqib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
  - Balanslanmagan markazga intilish kuchi sababli mahsulot tushib ketishi mumkin, bu esa insonga shikast yoki mahsulotga zarar yetkazishi mumkin. Mahsulotingizga mos keladigan shkaf yoki javonlardan foydalaning.
- Chiqarib olish oson bo‘lgan qurilmalar mahsulotga tashqi tomondan ulangan bo‘lishi lozim.
- IEC 61643-seriya talablariga mos keladigan tarkibiy qismlar bu mahsulotga ichki yoki tashqi tomondan o‘rnatilishi lozim.
- Tashqarida o‘rnatishda [Screen Off & Backlight (Outdoor Mode)] o‘rnating.
  - Ichki namlik va kondensatsiya xatarini kamaytirish uchun [Outdoor Mode] rejimini yoqing.
- Noldan past haroratda ishlayotganda korpusning ichki haroratini oshirish uchun korpus bir soatgacha ishlamasligi mumkin.

# Mahsulotni tozalashga oid ehtiyotkorlik choralari

## OGOHLANTIRISH

- Mahsulotni doimo toza saqlang.
  - Agar mahsulotni uzoq vaqt davomida tozalamasangiz va u chang bilan qoplansa, bu yong‘in yoki mahsulotning buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulot ichini tozalamoqchi bo‘lganingizda, xizmat ko‘rsatish markazi bilan bog‘lanishingiz lozim.
  - Aks holda, o‘zboshimchalik bilan tozalash, yong‘in, tok urishi yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo‘lishi mumkin.
- Mahsulotni tozalaganda elektr tarmog‘iga ulash kabelini rozetkadan uzing va tirnalishlarning oldini olish uchun yumshoq latta bilan yengil arting.
  - Elektr toki urishi yuz berishi mumkin yoki ekran tirnalishi kabi zarar yetishi mumkin.
- Old ramkani tozalashni istasangiz, yumshoq lattaga 2 martadan 4 martagacha suv seping va faqat bir yo‘nalishda arting.

  (LED modellari uchun emas)
  - Haddan tashqari ortiqcha namlik dog'larni hosil qilishi mumkin.
- LED chiroq korpuslaridan tashkil topgan ekranga qo‘llaringiz yoki boshqa narsa bilan tegmang.
  - Bu mahsulotga zarar yetkazishi mumkin.
- Jihozni tozalash uchun havo purkagich yordamida uning old ramkasi va ekranidagi changni yo‘qoting.
  - Agar yot jism ekrandagi LED chiroqlar orasida bo‘lsa, u ekranga zarar yetkazishi mumkin.

## DIQQAT

- Mahsulotni yoki ekranni tozalaganda elektr tarmog'iga ulash kabelini rozetkadan uzing va uni yumshoq latta bilan yengil arting. Suv hamda boshqa suyuqliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot ustiga sepmang. Ayniqsa, mahsulotni kimyoviy moddalar yordamida, jumladan, oyna tozalagich, har qanday havo tozalagich, insektisid, namlagich, mumiyo (mashina, maishiy), abrazivlar, eritgich, benzin, alkogol va hokazolar yordamida artlang, chunki bu mahsulot yoki uning panelini shikastlashi mumkin.
  - Bu yong‘in chiqishi, elektr toki urishi yoki mahsulotning shikastlanishiga (deformatsiyalanishi, korroziyalanishi yoki buzilishi) sabab bo‘lishi mumkin.

# Mahsulotdan foydalanish vaqtidagi ehtiyotkorlik choralari

## ⚠ OGOHLANTIRISH

- Mahsulotdan juda baland haroratli yoki yuqori namlikka ega bo'lgan muhitda foydalanmang.
  - Bu elektr toki urishiga yoki mahsulot zararlanishiga olib kelishi mumkin.
- Agar mahsulotdan uzoq vaqt davomida foydalanayotgan bo‘lsangiz ko‘zlaringizga zarar yetishining oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan dam oling.
  - Haddan ortiq tomosha qilish ko‘rish qobiliyatining susayishiga olib kelishi mumkin.
- Haddan ortiq balan tovushda eshitish yoki uzoq muddat foydalanish eshitishga zararli ta'sir etishi mumin.
- Mahsulot ichiga suyuqlik yoki begona buyumlar kirgan hollarda uni o'chiring va vilkani rozetkadan sug'urib oling va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Aks holda mahsulot yong'inga sabab bo'lishi yoki elektr tok urishiga olib kelishi mumkin.
- Ekranda tasvir ko'rsatilmagan yoki tovush eshitilmagan hollarda mahsulotdan foydalanishni to'xtating. Uni darhol o'chiring, vilkani rozetkadan sug'urib oling va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Aks holda mahsulot yong'inga sabab bo'lishi yoki elektr tok urishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulot yoki ekran ustiga buyumlarni tashlamang yoki uni hech qanday ta‘sir ostiga qo‘ymang.
  - Bu odamlarning jarohatlanishi, mahsulot bilan bog‘liq muammolar va ekranning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Agar siz tutun hidi yoki boshqa hidlarni sezsangiz, hamda g‘alati tovushlarni eshitsangiz, mahsulotni elektr tarmog‘idan uzing va xizmat ko‘rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Agar mahsulotdan ehtiyot choralarini ko‘rmasdan foydalanishda davom etsangiz, bu tok urishiga yoki yong‘in chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulotni o'zingizcha qismlarga ajratishga, ta'mirlashga yoki o'zgartirishga urinmang. Agar ta’mirlash lozim bo‘lsa xizmat ko‘rsatish markaziga murojaat qiling.
  - Yong‘in chiqishi yoki elektr toki urishi mumkin.
- Suyuqlik mahsulot ichiga sizib kirishini oldini olish uchun suyuqlik bilan to‘ldirilgan buyumlarni, masalan, vazalar, finjonlar va hokazolarni mahsulot ustiga qo‘ymang.
  - Bunday qilmaslik yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki mahsulotning deformatsiyalanishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulot yuzasini qo‘llaringiz yoki mix, qalam yoki ruchka kabi o‘tkir buyumlar bilan bosmang yoki tirnamang. Ekranning old va yon tomonlariga metall buyumlar bilan urmang yoki tirnamang.
  - Bu mahsulotlarning shikastlanishiga va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulot uzoq vaqt davomida quyosh yoki chiroq nuri ostida turgan bo‘lsa, unga tegmang, chunki u juda issiq bo‘lishi mumkin.

- Mahsulot yonida yuqori kuchlanishli tokda ishlaydigan elektr moslamalardan foydalanmang (masalan, elektr pashsha o‘ldirgich).
  - Agar qisqa tutashuv yuz bersa, u buzilishga olib kelishi mumkin.
- Agar gaz oqib chiqayotgan bo'lsa, rozetkaga tegmang va xonani shamollatish uchun oynalarni oching.
  - Aks holda mahsulot yong'inga sabab bo'lishi yoki elektr tok urishiga olib kelishi mumkin.
- Agar mahsulotni tushirib yuborsangiz yoki korpusi singan bo‘lsa, mahsulotni o‘chiring va elektr tarmog‘iga ulash kabelini uzing.
  - Agar kerakli choralarni ko‘rmasdan turib foydalanishni davom ettirsangiz, elektr toki urishi yoki yong‘in chiqishi sodir bo‘lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
- Mayda aksessuarlarni bolalarning qo‘llari yetmaydigan joylarda saqlang.
  - Agar bola uni yutib yuborsa, zudlik bilan shifokor bilan maslahatlashing.
- Bolalarni mahsulotga qo‘llari yetishini oldini oling. Undan tashqari, o‘yinchoqlar va buyumlarni mahsulotga yoki ekranga uloqtirmang.
  - Bu odamlarning jarohatlanishi, mahsulot bilan bog‘liq muammolar va ekranning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Blok qutilaridan quvvatni butunlay olib tashlash uchun barcha quvvat manbalari quvvat kabellarini chiqarib olish orqali uzilishi lozim.

## ⚠ DIQQAT

- Ushbu panel murakkab mahsulot bo‘lib, u millionlab piksellardan iborat. Siz ekranni tomosha qilayotganda gohida piksel dog‘larini ko‘rishingiz mumkin. Ushbu faolsizlantirilgan piksellar nosozlik bo‘lmagani uchun mahsulotning ishlashi va ishonchligiga ta’sir etmaydi.
- Mahsulot yaqiniga yonuvchan moddalarni qo‘ymang yoki saqlamang.
  - Yong'in chiqish yoki portlash xatari mavjud.
- Mahsulot bilan o‘rtangizda tegishli masofa qoldiring.
  - Agar mahsulotga haddan tashqari yaqindan qarasangiz, ko‘rish qobiliyatingizga zarar yetadi.
- Mahsulotga qarab tegishli tiniqlik va chastotani tanlang.
  - Aks holda ko‘zingizga zarar yetishi mumkin.
- Mahsulot bilan uzoq vaqt ishlaganda muntazam tanaffuslar qilib turing.

# Masofadan boshqarish pultidan foydalanishdagi ehtiyot choralari

## OGOHLANTIRISH

- Yuqori namlikka ega joylardan uzoq bo‘ling.
  - Bu elektr toki urishiga yoki mahsulot zararlanishiga olib kelishi mumkin.
- Batareyalarni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari, ochiq olov hamda elektrik isitgichlar kabi haddan tashqari issiqlikda ochiq qo‘ymang.
  - Bu yong‘inga olib kelishi va sizni jarohatlashi mumkin.
- Ularni almashtirayotgan vaqtingizda bolalarning masofadan boshqarish pulti batareykalarini yutib yubormasliklariga ishonch hosil qiling. Batareykalarni bolalarning qo'llari yetmaydigan joylarda saqlang.
  - Agar bola batareykani yutib yuborsa, darhol shifokorga murojaat qiling.
- Batareyalarni olovga yaqin qoldirmang.
  - Batareyalarni mahalliy utilizatsiya markazida yoki batareyalar sotiladigan do‘konda utilizatsiya qiling.
- Ishlatilgan batareyalar, jumladan, zaryadlash mumkin bo‘lganlari, oddiy chiqindidan alohida tarzda utilizatsiya qilinishi lozim.
  - Ishlatilgan yoki zaryalash mumkin bo‘lgan batareyalarni utilizatsiya markazida alohida utilizatsiya qiling yoki batareyalar sotiladigan do‘konga topshiring.

## DIQQAT

- Batareyalarni qisqa tutashtirmang va demontaj qilmang.
  - Bu elektr toki urishiga yoki yong‘inga olib kelishi mumkin.
- Masofadan boshqarish pulti quyosh nuri yoki kuchli chiroq yorug'i ostida to'g'ri ishlamasligi mumkin. Agar mahsulotdan shunday sharoitlarda foydalanilayotgan bo'lsa, uni boshqa joyga ko'chiring.
- Mahsulot va masofadan boshqarish pulti orasida to‘siq bor yoki yo‘qligini tekshiring.
- Yangi batareykalarni eski batareyalar bilan aralashtirmang.
  - Batareykalarning haddan tashqari qizishi yoki oqib ketishi yong'inga yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Batareykaning faqat maxsus turidan foydalaning. Zaryadlash qurilmasiga zaryadlanmaydigan batareykalarni joylashtirmang.
  - Batareykalarning haddan tashqari qizishi yoki oqib ketishi yong'inga yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

# Qoldiq tasvir yuzaga kelgan vaqtdagi ehtiyotkorlik choralari

- Uzoq vaqt davomida harakatsiz tasvirni namoyish qilish ekranning buzilishiga olib kelishi mumkin, natijada qoldiq tasvir paydo bo'ladi. Uchinchi tomonlarning ko'pchilik mahsulotlarida shu muammo mavjud. Buning natijasidagi shikastlanish mahsulot kafolati bilan qamrab olinmaydi.
  - Monitordan uzoqroq vaqt foydalanganda ekran saqlagichdan foydalaning.

# Mahsulotni chiqitga chiqarish

- Mahsulotni umumiy xo'jalik chiqitlari bilan tashqariga tashlamang.
- Ushbu mahsulotni chiqitga topshirish mahalliy tartib-qoidalarga asosan amalga oshirilishi lozim.

# MASOFAVIY PULTNI ISHLATISH

Ushbu qo‘llanmadagi tavsiflar masofadan boshqarish pultidagi tugmalarga asoslangan. Iltimos, ushbu qo‘llanmani diqqat bilan o‘qib chiqing va monitordan to‘g‘ri foydalaning. Batareyalarni almashtirish uchun batareyalar bo‘lmasi qopqog‘ini oching, batareyalarni (1,5 V AAA) ⊕ va ⊖ uchlari bo‘lma ichidagi yorliqqa mos keladigan tarzda joylashtiring, va batareyalar bo‘lmasi qopqog‘ini yoping. Batareyalarni olib tashlash uchun o‘rnatish harakatlarini teskari tartibda bajaring. Rasmlar haqiqiy aksessuarlardan farq qilishi mumkin.




## ⚠ DIQQAT

- Eski va yangi batareyalarni aralashtirmang, chunki bu masofadan boshqarish pultini shikastlashi mumkin.
- Masofadan boshqarish pultini monitordagi masofadan boshqarish sensoriga yo‘naltirganligingizga ishonch hosil qiling.
- Masofali boshqaruvning ayrim xususiyatlari ba'zi modellarda qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- Mahsulotning ichki va tashqi batareyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri ostida, yong‘inga yaqin yoki shu kabi narsalar ta’siri ostida bo‘lmasligi lozim.

* Modelga muvofiq




⏻ **(QUVVAT)** Monitorni yoqadi yoki o‘chiradi.

**(OVOZNI O'CHIRISH)** Barcha tovushlarni o'chiradi.

**Start** (Ichki kompyuter) Oyna tugmasi kabi ishlaydi.

**Space** (Ichki kompyuter) Probel tugmasi kabi ishlaydi.

**Alt+Tab** (Ichki kompyuter) Alt+Tab tugmalari kabi ishlaydi.

**Alt+F4** (Ichki kompyuter) Alt+F4 tugmalari kabi ishlaydi.

**Raqam tugmalari** Sozlamaga qarab raqamli belgilarni kiritadi.

**Display** Ekranda hozir qo'llanilgan tashqi kirish manbasini ko'rsatadi.

**Input** Tashqi kirish sozlamalari oynasini ko'rsatadi.

**Home** Dastlabki oynaga qaytaradi.

Bu funksiya ushbu modelda ishlamaydi.

**Menu** Umumiy sozlamalar oynasini ko'rsatadi.

Mahsulotning old tomonidagi quvvat tugmasi yoki bosish funksiyasini yoqadi yoki faolsizlantiradi.

Mahsulotning old tomonidagi quvvat tugmasini yoqadi yoki faolsizlantiradi.

Bosish funksiyasini yoqadi yoki faolsizlantiradi.

Ekranni pauzalash funksiyasini yoqadi yoki faolsizlantiradi.




Butun ekranni yoqadi yoki o'chiradi.

(Ichki kompyuter) Backspace tugmasi kabi ishlaydi.

**Yo'naltiruvchi tugmalar** Menyular yoki parametrlar bo'yicha aylantiradi.

**Enter** Menyular yoki parametrlarni tanlaydi va siz kiritgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Qayd funksiyasini yoqadi.

**Back** Foydalanuvchi o'zaro aloqasi funksiyasida bir qadam orqaga o'tishga imkon beradi.

**CH+/-** Saqlangan dasturlar/kanallarni aylantiradi.

**PgUp** Ekranning yuqorisiga ko'chiradi.

**PgDn** Ekranning quyisiga ko'chiradi.

**VOL+/-** Tovush balandligini sozlaydi.

**Funksional tugmalar** (Ichki kompyuter) Funksional tugma kabi ishlaydi.

# ULANISHLARNI BAJARISH

Siz monitoringizga turli tashqi qurilmalarni ulashingiz mumkin. Kiritish rejimini o'zgartiring va o'zingiz ulamoqchi bo'lgan tashqi qurilmani tanlang.
Tashqi qurilmalarni ulash to'g'risida ko'proq ma'lumotlar olish uchun har bir qurilma bilan birga berilgan foydalanuvchi qo'llanmasiga qarang.

## ShKga ulash

Kabellardan ayrimlari birga berilmaydi.

Bu monitor Plug and Play* xususiyatini qo'llab-quvvatlaydi.

* Plug and Play: Kompyuterga foydalanuvchi tomonidan ulangan qurilmalarni yongan vaqtda qurilmani sozlamasdan turib yoki foydalanuvchining aralashuvisiz tanib olishga imkon beruvchi xususiyat.

## Tashqi qurilma ulanishi

HD qabul qilgichi, DVD yoki VCR pleyerni monitorga ulang va tegishli kirish rejimini tanlang.

Kabellardan ayrimlari birga berilmaydi. Eng yaxshi tasvir va ovoz sifatiga erishish uchun tashqi qurilmalarni monitorga HDMI kabellari orqali ulash tavsiya qilinadi.

### ESLATMA

- Eng yaxshi tasvir sifatiga erishish uchun HDMI ulanishiga ega bo'lgan monitordan foydalanish tavsiya qilinadi.
- Mahsulotning standart texnik xususiyatlariga mos bo'lishi uchun DVI-D kabeli singari temir o'zakli himoyalangan interfeys kabelidan foydalaning.
- Qurilma sovuq bo'lgan vaqtda monitorni yoqqaningizda ekran miltillashi mumkin. Bu oddiy holat.
- Ekranda ayrim qizil, yashil yoki ko'k nuqtalar paydo bo'lishi mumkin. Bu oddiy holat.
- Yuqori tezlikdagi HDMI®/™ kabeldan foydalaning. (3 m yoki kaltaroq)
- HDMI logotipi yopishtirilgan sertifikatlangan kabeldan foydalaning. Agar sertifikatlangan HDMI kabelidan foydalanmasangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanish xatoligi yuz berishi mumkin.
- Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari
  - Yuqori tezlikdagi HDMI®/™ kabel
  - Ethernetga ega bo'lgan Yuqori tezlikdagi HDMI®/™ kabeli







HDMI : A ≦ 11,65 mm ; B ≦ 20,65 mm
USB : A ≦ 8,3 mm ; B ≦ 16 mm

- Agar siz HDMI rejimida hech qanday tovushni eshita olmasangiz, kompyuteringiz parametrlarini tekshiring. Ayrim kompyuterlar sukut bo‘yicha o‘rnatilgan audio chqishni qo‘lda HDMI-ga o‘zgartirishni talab qilishi mumkin.
- Agar HDMI-PC rejimidan foydalanishni istasangiz, PC/DTV-ni PC (Kompyuter) rejimiga o‘rnatishingiz kerak.
- Agar siz HDMI-PC rejimidan foydalansangiz, moslik bilan bog’liq muammolarga duch kelishingiz mumkin.
- Elektr tarmog'iga ulash shnurining uzilganligiga ishonch hosil qiling.
- O’yin qurilmasini monitorga ulash uchun o’yin qurilmasi bilan birga berilgan kabeldan foydalaning.
- HDMI INPUT porti orqali kiruvchi kontentlarni HDMI OUT portiga o'tkazib bo'lmaydi. (HDMI OUT port faqat Android/VGA/USB portlar bilan ishlaydi.)
- Maxsus tashqi kirish terminali va kontakt terminali bog‘lanadi. Kontakt terminalidan foydalanishda ulangan terminallarni birga ulang. (Sensorli model)
  - HDMI1/HDMI2: Touch 1
  - HDMI3/VGA: Touch 2

## DIQQAT

- Signal kiritish kabelini ulang va vintlarni soat mili yo‘nalishida aylantirish orqali uni qotiring.
- Ekranni barmoqlaringiz bilan uzoq vaqt bosmang, chunki bu ekranning vaqtinchalik buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Televizordan 50 santimetr yoki undan kam masofaga akslantiruvchi obyektlarni qo'ymang.
- Harakatsiz tasvirlarni ekranda uzoq vaqt namoyish qilmang, bu tasvir izi saqlanib qolishigaga olib keladi. Mumkin bo‘lsa, ekran saqlagichdan foydalaning.
- Monitor yaqinidagi simsiz ulanuvchi qurilma tasvirga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

## ESLATMA

- Mahsulot funksiyalarining yangilanishi sababli dasturiy ta’minotga tegishli kontent avvaldan ogohlantirmasdan o’zgartirilishi mumkin.
- Foydalanuvchi qo‘llanmasida tavsiflangan ba’zi bir xususiyatlar ayrim model va mamlakatlarda qo‘llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- SNMP 2.0 qo'llab-quvvatlanadi.

# KIRISH (IFP OT)

## Ta’lim uchun IFP operatsion tizimi yechimi:

- Yangi OT ishga tushirgich, kristall tozalash funksional zonalar, samarali yorliqlar
- Tizim panelining yangi dizayni, markazlashgan boshqaruv moslashni dastaklaydi
- Samarali va moslashuvchan ko‘p oyna bilan ishlash, IFP uchun betakror yechim
- Smarter Note yozuvni tanish, grafik assotsiatsiya, kalit so‘zlarni qidirish, smart Excel va qo‘lyozmani yaxshilashni qo‘llab-quvvatlaydi
- Darsda yaxshiroq muloqotni ta’minlashda o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘proq yorliq vositalari
- Yanada moslashuvchan ekranni ulashish, mijozsiz aks ettirish, maxsus oyna ekranini ulashish va desktopni sinxronlashni qo‘llab-quvvatlaydi

### ⚠ DIQQAT

- Asosiy FI/GI, ilova konfiguratsiyasi va bu qo‘llanma va mahsulotning menyu konfiguratsiyasi farq qilishi mumkin.

# [Launcher]

O‘qitishda ishlatiladigan ilovalar, fayllar va veb sahifalarni o‘qituvchilar oson va samarali ishga tushirishi uchun Umumiy ta’lim [Launcher] o‘qituvchilar uchun funksional sohalarga yorliqlar sohasini qo‘shgan. O‘qituvchilar tezkor boshlash uchun tez-tez ishlatiladigan ilovalar, jildlar/fayllar va veb sahifalarni [Launcher] dasturiga tortib/yuborishi mumkin. Shuningdek, bizda o‘qituvchilar ishlatishi uchun turli fon rasmlari mavjud.

1 [Launcher] odatiy tarzda Androidda ko‘rsatiladi.



2 [Launcher] dasturida ilovalar, fayllar, veb saytlar uchun yorliqlarni yarating va boshqaring:



3 Rangli fon rasmlarini sozlang:



# [Status Bar]

Yuqori o‘ngdagi soha yuqoridagi holat paneli hisoblanib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

## [Touch Menu]

belgisini bosish kirish manbalarini almashtirishga imkon beradigan [Touch Menu] menyusini ochadi.



## [Brightness and Sound]

belgisini bosish parametrlarni sozlashga imkon beradigan [Touch Menu] menyusini ochadi.



## [Ethernet]

Yuqori o‘ng qismidagi belgisini bosish [Settings] → [Ethernet] sahifasini ochadi.




## [Hotspot]

belgisini bossangiz, ulanish nuqtasi sozlanadigan [Settings] → [Hotspot] sahifasi ochiladi.

## [Wi-Fi]

Agar Wi-Fi modulini qo‘ysangiz, yuqori o‘ng burchakdagi belgisi bo‘ladi. Buni bosish [Settings] → [Wi-Fi] sahifasini ochadi.



## [Time]

03:41 AM belgisini bosish [Settings] → [Date & Time] sahifasini ochadi.



# [Shortcut Area]

Markazdagi soha yorliqning ma’lumotni saqlash sohasi hisoblanib, quyidagi turlarga ega:

## Ilova yorlig‘i

Yorliq yaratish uchun [All Apps] bandidagi belgini [Launcher] dasturiga torting.

1-bosqich: [All Apps] bandidan ilova belgilarini torting.



2-bosqich: Joylashni istagan saqlash sohasiga torting.



3-bosqich: Qo'lni ko'targandan keyin yorliqni muvaffaqiyatli yarating.



Endi belgini bosish orqali ilovani tezkor ishga tushirish mumkin.



## [File Shortcut]

Yaratish uchun [Finder] bandidan [Launcher] dasturiga fayllar/jildlarni torting yoki yuboring.

1-bosqich: [Finder] bandidan fayllar/jildlarni torting.



2-bosqich: Joylashni istagan saqlash sohasiga torting.



3-bosqich: Qo‘lni ko‘targandan keyin yorliqni muvaffaqiyatli yarating.



Belgini hozir bosib, jild yo'li osonlik bilan ochilishi mumkin.



1-eslatmalar: Yaratishning boshqa usuli mavjud.
Pastki [Send] → bandida → faylni, yaratish uchun [Shortcut] bandini tanlang.







Endi belgini bosib, fayl osonlik bilan ochilishi mumkin.

2-eslatmalar: Manba fayli yo'lini tez topish uchun belgini bosib turing.



## [USB Shortcut]

Agar USB flesh xotirasini qo‘ysangiz, [Launcher] dasturida yorliq paydo bo‘ladi. Buni bossangiz, [Finder] orqali USB flesh xotirasi ochiladi.



# [Shortcut Management]

Boshqarish uchun bosib turing yoki yorliqlarni torting:

## [Remove]

Menyu panelini ochish uchun belgini bosib turing, [Launcher] dasturida yorliqni olib tashlash uchun [Remove] bandini bosing.






## [Change Position]

[Launcher] dasturida joyini o‘zgartirish uchun bosib turib, torting.






# [Wallpaper]

[Launcher] dasturi o‘qituvchilar tanlashi uchun maxsus fon rasmlariga ega:

## [Default Wallpaper]



## [Custom Wallpaper]

Fon rasmlarni sozlash uchun [Settings] → [Personal] → [Wallpaper] → [Stills] sahifasini oching.



# [System Bar]

[System Bar] o‘qituvchilarga vazifalarni markazlashgan, samarali boshqarish va vazifalarni almashtirish va bir qancha ssenariylarda vositalardan foydalanish uchun yechim taqdim etadi. Bu odatda tarkibning uchta qismini birlashtiradi: vazifa menejeri, ilova menejeri va vositalar menejeri, shunda o‘qituvchilar bu integratorda elementlarni birgalikda faollashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, konfiguratsiya va boshqaruvni dars o‘tishga muvofiq sozlash uchun o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi. Odatiy tarzda o‘qituvchi uchun pastdan va ikkala tomondan yorliq taqdim etamiz va o‘qituvchi foydalanish odatiga ko‘ra [Settings] menyusida berkitish/ko‘rsatishni sozlashi mumkin.

1. Kirish manbalari, vazifalar, ilovalar va vositalar rivojini markazdan boshqaring

Kirish manbasi va ishlayotgan ilovalar



[All Apps]




Barcha vositalar



2. [System Bar], jumladan, kontent va holatning ko‘rsatilishini sozlang

Kontentni sozlash






## Holatni sozlash



# [Navigation Bar]

[System Bar] tizimida vazifa menejeri, vazifalar rivojini bu yerda boshqaring:

| Mundarija | Ta’rifi |
|---|---|
| [Back] | Eng oxirgi amal interfeysiga qaytish uchun tugmasini bosing. |
| [Home] | Ish stoliga qaytish uchun tugmasini bosing. |
| [Backstage] | Oynani ochish va oxirgi ilovalar hamda kirish manbalarini ko‘rsatish uchun belgisini bosing. |

## [Backstage]

Barcha rivojlarni bitta [Clean All] tugmasi bilan o‘chirish yoki rivojlarni yuqoriga tortib o‘chirish mumkin. Jarayonga kirish uchun ularning birini bosish mumkin.



# [Application Center]

[System Bar]'dagi ilovani ishga tushirgich va menejer. Bu yerda barcha ilovalarni topish mumkin.

| Mundarija | Ta'rifi |
| --- | --- |
| [Default Shortcut] |  |
| | [System Bar] quyidagi standart ilovalarni ko'rsatadi: [Note], [Finder], [Browser]<br>Jarayonni boshlash uchun yorliqni bosing. |
| [All Apps] |  |
| | Odatiy tarzda o'rnatilgan ilovalar: [Browser], [Cloud Drive], [Email], [Finder], [Keeper], [LG ConnectedCare DMS], [Note], [Palette], [Settings], [OfficeSuite], [LG CreateBoard Share] |
| Foydalanilayotgan ilovalar | Hozirda ishlayotgan ilovani bosing va jarayonni davom ettiring. |

## [Default Shortcut]

[System Bar] menyusida 4 ta tez-tez ishlatiladigan yorliq yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchilar almashtirish uchun barcha ilovalardan boshqa ilovalar yorliqlarini tortib tashlashi mumkin.

1-bosqich: [All Apps] menyusini bosing va istagan ilovangizni toping.



2-bosqich: Bosib turib torting.



3-bosqich: Standart yorliq sohasida yorliq yaratish uchun [System Bar] menyusiga o‘ting.






# [Small Tools]

Vositalar yordamida o'qituvchi o'quvchilari bilan qiziqarli tajriba uchun interaktiv o'rganishni takomillashtirishi mumkin:

## Vositalar ro'yxati

Jumladan [Menu], [Annotation], [CountDown], [Capture], [Stopwatch], [AirClass], [Spotlight], [Freeze], [ScreenLock] va [Record].

| Belgi | Funksiya | Ta'rifi |
|---|---|---|
|  | [Menu] | <br>1 Barcha kirish manbalarini, jumladan, [PC], [Android], [HDMI], [Type-C] va [VGA] kirishlarini ko'rsatadi.<br>2 Kirish manbasi uchun [Audio], [Screen], [Display] va [Adjust] kabi kengaytirilgan sozlamalarni ko'rsatadi. |
|  | [Annotation] | <br>1 O'qituvchilarga har qanday ilova, veb sayt, hujjat yoki tasvir ustidan yozishga imkon beradi.<br>2 Boshqa kirish manbalari yoki Androiddan foydalanishdan qat'i nazar, o'qituvchi har qanday ekrandagi kontent ustidan izoh yozishi mumkin. |
|  | [CountDown] | <br>Ma'lum vaqt oralig'idan hisobni boshlaydigan vosita. |

<table>
<tr><th>Belgi</th><th>Funksiya</th><th>Ta'rifi</th></tr>
<tr><td rowspan="2">
</td><td rowspan="2">[Capture]</td><td>
</td></tr>
<tr><td>1 O‘qituvchilar ekrandagi hamma narsaning skrinshotlari, jumladan, ilovalarning kontentlari, veb saytlar va videolarni suratga olishi mumkin.<br>2 O‘qituvchi [Freedom], [Full] va [Window] rejimini tanlashi mumkin.<br>3 Tahrirlash uchun yozuv taxtasi qo‘yishni qo‘llab-quvvatlaydi.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">
</td><td rowspan="2">[Stopwatch]</td><td>
</td></tr>
<tr><td>O‘tgan vaqtni o‘lchash uchun noldan yuqoriga qarab hisoblaydigan vosita.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">
</td><td rowspan="2">[AirClass]</td><td>
</td></tr>
<tr><td>1 O‘qituvchilar QR kod yoki IP manzil orqali interfaol mashg‘ulotlarga qo‘shilish uchun o‘quvchilarni taklif qilishi mumkin.<br>2 Bu ovoz beruvchi, javob beruvchi, tanlovchi va boshqa mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi.</td></tr>
</table>

| Belgi | Funksiya | Ta’rifi |
| --- | --- | --- |
|   | [Spotlight] |   |
| | | O‘qituvchilar bu funksiya bilan ekranning ma’lum sohalariga e’tibor qaratishi mumkin. |
|   | [Freeze] |   |
| | | O‘qituvchilar ekrandagi joriy kontentni muzlatib, kattalashtirishi mumkin. |
|   | [ScreenLock] | O‘qituvchi [ScreenLock] yordamida ekranni qulflashi va [Settings] menyusida sozlanadigan parolni kiritish orqali uni ochishi mumkin. |
|   | [Record] | Ekranni yozib oling. |

## [Tools Customize]

[System Bar] menyusida 4 ta ko‘p ishlatiladigan kichik vositani yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘qituvchilar almashtirish uchun [More] menyusidan boshqa vositalarni qo‘shishi mumkin.

1-bosqich: Tahrirlash holatiga kiritish uchun [Edit] tugmasini bosing yoki vositalar belgisini bosib turing.



2-bosqich: [System Bar] panelidan displeyni olish uchun - tugmasini bosing.






[System Bar] paneliga displeyni qo‘shish uchun + tugmasini bosing.






# [System Bar Settings]

Standartga ko‘ra pastga va yon tomonlarga kirish mumkin






O‘qituvchilar foydalanish odatlariga muvofiq sozlamalar menyusida berkitish/ko‘rsatishni sozlashi mumkin



# [Multi-Windows]

[Multi-Windows] o‘qituvchilarga IFP dasturida yangi ishlatish yechimi taqdim etadi. Oynali kontent displeyi orqali o‘qituvchi katta ekran qarshisida turib, kontent ma’lumotlarini ko‘rinuvchi diapazonda samarali o‘qishi mumkin. Oynali ilova menejmenti orqali qo‘lingiz displey o‘lchami va ilova oynasining holatini erkin va qulaylik bilan boshqarishi mumkin. Ko‘p vazifali amaliyot yechimi orqali o‘qituvchilar bir vaqtda bir qancha ilovalarni ko‘rsatishi va undan foydalanishi mumkin, masalan, kurs kontentini namoyish qilish bilan bir vaqtda doskaga asosiy atamalarni yozish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilar turli ilovalar orasida ma’lumotlarni qulay va samarali almashish uchun ilovalar kontentlarini tortib tashlashi mumkin.

1 Katta ekran yechimi o‘qituvchilar o‘qishi uchun ko‘proq mos keladi:
1-namuna: Oynalar rejimi uchun [Finder]:



2-namuna: Oynalar rejimi uchun [Settings]:



2 O‘qituvchilar oyna displeyi o‘lchami va holatini osonlik bilan boshqarishi mumkin:
1-namuna: Oynaning o‘lchamini o‘zgartirish uchun chetini torting:



2-namuna: 1/4 o'lchamga tezroq kirish uchun oynaning yuqoridagi panelini ekranning chetiga torting:



3 Ekranda ko‘proq ilovalar va vositalarni ko‘rsatish:

1-namuna: [Note] sohasida yozish davomida kontentni samarali aks etadi:



2-namuna: Ekranda bir vaqtda uchta ilova ko‘rsatiladi:



Maslahatlar: [Finder] va [Browser] yangi oynalarni qo‘llab-quvvatlaydi:






4 [Multi-Window Mode]:



# [All Apps]

O‘qitish ssenariylariga qarab turli xil maxsus IFP ilovalaridan foydalanish mumkin. Standart ilovalar [Note], [Palette], [Finder], [Browser], [Settings], [Cloud Drive], [OfficeSuite], [Photo], [Music], [Video], [Keeper], [Email], [LG ConnectedCare DMS] va [LG CreateBoard Share] kabi ilovalardan iborat.

## [Note]

[Note] ilovasini ochish uchun tugmasini bosing.



## [Pen]

[Note] ilovasi foydalanuvchilarga tanlash uchun ranglar va pero uslublarining keng assortimentini taklif etadi. Ikkita pero funksiyasi ikkita rangni belgilash va [Note] ilovasida yozuvdan foydalanish imkonini beradi.



### ⚠ DIQQAT

- Ikkitalik pero funksiyasi bilan yozish va chizish uchun pero bilan ishlatishda ikki xil rangni belgilashingiz mumkin.
- Ikkitalik pero uchun dastlabki sozlama O'chiq. Sozlamalar menyusida ikkitalik perodan foydalanish va birorta ham perodan foydalanmaslikka o'zgartirishingiz mumkin. (Pastki chap [Menu] → [Settings] → Ikkitalik pero)
- Ikkitalik perodan foydalanishda pero ekranga tegadigan burchakka bog'liq ravishda turli ranglar ko'rsatilishi mumkin.

## [Shape]

Note ilovasi keng maxsus shakllar, jumladan, ikki o‘lchovli tekislikdagi shakllar va uch o‘lchovli geometrik shakllarga ega, bular shakllarni o‘quvchilarga osonlik bilan ko‘rsatish uchun o‘qituvchilarga qulaylik beradi.



# [Ruler]

Note ilovasining chizg‘ich vositasi o‘qituvchilar haqiqiy chizg‘ichdan foydalanishiga ehtiyoj qoldirmaydi va [Note] ilovasida o‘qituvchiga yordam berishi mumkin.



## [Sticky Notes]

[Note] ilovasidagi [Sticky Notes] vositasi real hayotdagi holatlarga o'xshatilgan, foydalanuvchilar ko'rishi uchun kanvasga muhim ma'lumotlarni qadash va aqliy hujum vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin.



## [Table]

Note ilovasi bir nechta jadvallarni yaratish va ularni bir vaqtda ko‘rsatishni qo‘llab-quvvatlaydi.



## Peroning kengaytirish funksiyasi

Qo'lyozmani tanlagandan keyin qo'lyozma yaxshilangan shrift sifatida avtomatik tanilishi mumkin va qo'lyozmani qidirish va uni aks ettirish mumkin.



## Tasvirni kattalashtirish funksiyasi

Tasvirni tanlagandan keyin tasvir vektor tasvirga o‘zgartirilishi va uni akslantirish mumkin.



## Maxsus vositalar paneli

[Note] to‘liq ekranda bo‘lganida vositalar panelida qaysi vositalar ko‘rsatilishi va qaysilar [More] menyusida ichki menyuga berkitilishini tanlashingiz mumkin.



## Bir nechta formatlarda fayllarni import va eksport qilish

Note ilovasi bir nechta fayl formatlarini import qilish va fayllarni bir nechta formatlarga eksport qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.



## Fayllarni saqlash uchun bir nechta usullar

Fayllarni lokal tizim va U diskka saqlash bilan bir qatorda [Note] ilovasi fayllarni saqlash yoki ularni elektron pochtaga yuborish uchun fayllarni mobil telefon yordamida skanerlashni qo'llab-quvvatlaydi.



# [Palette]

[Palette] oynasini ochish uchun tugmasini bosing.




## [Menu]

[Menu] oynasini ochish uchun tugmasini bosing.



## Menyu-saqlash

[Menu] menyusida Save tugmasini bosing, so‘ng saqlashni istagan yo‘lakni tanlang. So‘ng fayl nomini quyidagicha sozlash mumkin.




Endi palitra ishlarini lokal xotiraga saqlash uchun [OK] tugmasini bosishingiz mumkin.

## Menyu-import

Suratni [Palette] ilovasiga import qilishni tanlash uchun menyu oynasida  tugmasini bosing. Bu surat joriy sahifa uchun fon sifatida ishlatilishi mumkin, masalan.



## Menyu-ulashish

[Menu] menyusida Share tugmasini bosish QR kodni shakllantiradi, bu palitrangizni boshqalar bilan ulashishi mumkin.




## Menyu-chiqish

Exit tugmasini bosish [Palette] ilovasidan chiqaradi. Ehtiyot bo‘ling, saqlamasangiz, joriy ishlar yo‘qolib qoladi.

## [Clear]

Joriy sahifadagi barcha kontentlarni tozalash uchun Clear tugmasini bosing.

## [Undo]

Oxirgi bosqichga qaytish uchun Undo tugmasini bosing.

## [Redo]

Bosqichni tiklash uchun Redo tugmasini bosing.

## Perolar






## Pero yurishi slayderi



## [Palette]




[Color Box] katagida mavjud bo‘lmagan rangni sozlash uchun palitradan foydalanishingiz mumkin.
1-bosqich, [Color Box] katagida rangni tanlang. Masalan,




2-bosqich, [Palette] ilovasidagi rolikni soat mili bo‘ylab torting, bu xuddi bunday bo‘lsin.



1 va 2-bosqichni takrorlang, [Color Box] katagida mavjud bo‘lmagan rangni olishingiz mumkin, masalan,




## Rang tanlagich




## Vositalar panelini berkitish yoki ko‘rsatish



## [Sample]

Ish maydonida rangni tanlash uchun tugmasini bosing




## To‘ldirish

Pero rejimidan to‘ldirish rejimiga o‘tkazish uchun tugmasini bosing. Bu rejimda [Color Box] katagida rangni tanlashingiz, so‘ng yopiq sohani to‘ldirishingiz mumkin, masalan,



# [Finder]

[Finder] ilovasini ochish uchun Finder tugmasini bosing.



## [Storage]




Foydalanuvchilar lokal xotirada saqlanayotgan manbalarni ularning turkumlari, jumladan, hujjat, yozuv taxtasi yozuvi (yozuv taxtasi va tezkor skrinshot olish orqali saqlangan sahifalar), video, rasm va audio turkumlari asosida ko‘rishi mumkin.

### Orqa taraf

Avvalgi sahifaga qaytish uchun ‹ tugmasini bosing.

### Qidirish




Qidirish uchun oynaning yuqori o‘ng burchagidagi matn kirish maydonchasida kerakli manba nomini kiriting va [Exit] tugmasini bosing. Masalan, “so‘z” kiritilsa, “so‘z” deb nomlangan manbalarni topish mumkin.

# [USB]




Foydalanuvchilar [USB] xotirada saqlanayotgan resurslarni ularning turkumlari, jumladan, hujjat, yozuv taxtasi yozuvi (yozuv taxtasi va tezkor skrinshot olish orqali saqlangan sahifalar), video, rasm va audio turkumlari asosida ko'rishi mumkin.

## [Grid] rejimi




Manbalar ikonkalar shaklida ko‘rsatilishi uchun tugmasini bosing. Standartga ko‘ra resurslar belgi shaklida ko‘rsatiladi.

## [List] rejimi




Batafsil ma’lumot shaklida resurslarni ko‘rsatishga o‘tish uchun tugmasini bosing.

## [Sort]




Suratda ko‘rsatilganidek, menyuni ochish uchun  tartiblash tugmasini bosing. Manbalarni tartiblash, jumladan, nomi, turi, o‘lchami va vaqti bo‘yicha tartiblashingiz mumkin. Odatda manbalar nomi bo‘yicha tartiblanadi.

## [Select]

Masalan,  tugmasi bosilsa, u  tugmasiga o‘zgaradi va manbalar oynasining yuqori o‘ng burchagida belgilash oynasi ochiladi. Keyin kerakli manbalarni tanlash mumkin.

## [Select All]

Oynada tugmasini bosib joriy jilddagi barcha manbalarni tanlashingiz mumkin.




Belgilashni bekor qilish. Hozir belgilangan mabalarning hammasini bekor qilish uchun tugmasini bosing.

## Nusxalash

Manba tanlanganida, nusxalash tugmasi paydi bo‘ladi. Belgilangan manbani nusxalash uchun tugmasini bosing.

## Joylash

Hozir biror manba nusxalangan yoki kesib olingan bo‘lsa, tugmasi chiqadi. Foydalanuvchilar nusxalangan/kesib olingan manbani tegishli manzilga joylashi mumkin. Joylash amalini faqat joriy jildda barcha manba manzillari ko‘rsatilganida bajarish mumkin.

## Kesib olish

Manba tanlanganida, kesib olish tugmasi paydi bo‘ladi. Belgilangan manbani kesib olish uchun tugmasini bosing.

## O‘chirish

Belgilangan manbani o‘chirib tashlash uchun 🗑 tugmasini bosing.

## Qayta nomlash

Belgilangan manbani qayta nomlash uchun [T] tugmasini bosing.

## Ko‘proq




“Yuborish” tugmasi ekranga chiqishi uchun ✈ tugmasini bosing. Belgilangan faylni manzil jildga yuborishingiz mumkin.

## [New Folder]




Joriy jildda yangi jild yaratish uchun [New Folder] tugmasini bosing.

# [Settings]

[Settings] menyusini ochish uchun tugmasini bosing.



# [Wireless & Network]




## [Wi-Fi]

[Wi-Fi] interfeysiga kirish va [Wi-Fi] ulanishlarini boshqarish va ko‘rish uchun [Wi-Fi] menyusini bosing. Agar [Wi-Fi] tarmog‘ingiz ko‘rinmasa, + belgisi ustiga bosing va [Wi-Fi] tarmog‘ini qo‘lda kiriting. Bundan tashqari, [Wi-Fi] manzilini ko‘rish va sertifikatni o‘rnatish uchun ··· belgisini bosishingiz mumkin.

## [Ethernet]

Simli tarmoq sozlamalari yordamida tarmoq holatini ko'ring va boshqaring yoki statik IP va proksi-server sozlamalarini qo'lda sozlang.

## [Hotspot]

Ulanish nuqtalarini ko'rish va boshqarish yoki faol nuqta nomi, parol va chastotani qo'lda o'rnatish uchun [Hotspot Settings]'dan foydalaning.

## [VPN]

